

Xaiqaro jurnalistika fakulteti dekani



A. Matyakubov

Siyosiy fanlar kafedrasini mudiri



S. Saidov

Universitet axborot resurs  
markazi direktori



S. Kayumova

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI  
OLIV TA'LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI  
O'ZBEKISTON DAVLAT JAHON TILLARI UNIVERSITETI



Ro'yhatga olingan: *BD 60310400- US11210*  
2025-yil "08" avgust

UMUMIY SOTSILOGIYA  
FANINING O'QUV DASTURI  
1-KURS

**Bilim sohasi:** 300 000 – Ijtimoiy fanlar, jurnalistika va axborot  
**Ta'lim sohasi:** 310 000 – Ijtimoiy va xulq-atvorga mansub fanlar  
**Ta'lim yo'nalishi:** 60310400 – Sotsiologiya

Toshkent – 2025

Fan/modul kodi US11210	O'quv yili 2025-2026	Semestr 1, 2	Kreditlar 10	
Fan/modul turi Majburiy	Ta'lim tili O'zbek-Rus		Haftadagi dars soatlari 6/4	
1.	Fanning nomi	Auditoriya mashg'ulotlari (soat)	Mustaqil ta'lim (soat)	Jami yuklama (soat)
	Umimiy sotsiologiya	120	180	300
2.	<p><b>I. Fanning mazmuni:</b></p> <p><b>Fanni o'qitishdan maqsad</b> – “Sotsiologiya” ta'lim yo'nalishida tahsil oluvchi talabalarning kasbiy salohiyatini ta'minlovchi fanning nazariy asoslari bo'yicha bilimni oshirish, kelgusi amaliy faoliyatda umimiy sotsiologik ta'limotlar, qonuniyatlar asosida ish yuritish bo'yicha tasavvur hamda ongli munosabat shakllantirilishini ta'minlashdan iborat.</p> <p><b>Fanning vazifasi</b> - sotsiologiyaning jamiyat hayotidagi o'rni, funksiyalari, ahamiyati to'g'risida batafsil ma'lumot berish, zamonaviy ijtimoiy hayotning murakkab hodisa va jarayonlarini ilmiy tushunish, amaliy faoliyatda sotsiologik bilim va metodlardan foydalanish malakasini shakllantirishdan iborat.</p> <p><b>Xorij tajribasiga muvofiqligi</b></p> <p>Mazkur fan dasturi xalqaro tan olingan reytinglarda TOP-300 talik ro'yxatiga kiruvchi Rossiyaning M.V. Lomonosov nomidagi Moskva davlat universiteti ta'lim dasturi Obshaya sotsiologiya fan dasturi tajribasini o'rgangan holda tuzildi. <a href="http://socio.msu.ru/documents/students/materials/390301_bachelor_D_sociology.pdf">http://socio.msu.ru/documents/students/materials/390301_bachelor_D_sociology.pdf</a></p> <p><b>II. Asosiy qism (amaliy mashg'ulotlar)</b></p> <p><b>II.I. Fan tarkibiga quyidagi mavzular kiradi:</b></p> <p style="text-align: center;"><b>1-SEMESTR</b></p> <p><b>1-mavzu. Sotsiologiyaning fan sifatida vujudga kelishi va taraqqiyotini asosiy bosqichlari (4 s)</b></p> <p>Кириш. Sotsiologiya atmasi, tarifi va predmeti. Sotsiologiyaning Yevropada fan sifatida vujudga kelishi. Sotsiologiyaning funksiyalari. Ijtimoiy tizimida sotsiologiyaning o'rni Ijtimoiy islohotlar to'g'risida. Sotsiologiya fanining vujudga kelishining ijtimoiy-iqtisodiy, tabiiy-ilmiy va g'oyaviy-nazariy zaminlari. Sotsiologiyaning mustaqil fan sifatida shakllanishining obektiv zaruriyati.</p> <p>Sotsiologik nazariyalar taraqqiyotiga sotsial kuchlar ta'siri: siyosiy inqiloblar, sanoat to'ntarilishi va kapitalizmning rivojlanishi, feminizm, urbanizatsiya, dindagi o'zgarishlar, fan taraqqiyoti, ma'rifatchilik.</p> <p><b>2-mavzu. Sotsiologiyaning ob'yekti va predmeti (2 s)</b></p> <p>Fanda ob'yekt va predmet tushunchalari. Sotsiologiyaning mustaqil fan sifatida vujudga kelishining ijtimoiy-iqtisodiy va g'oyaviy asoslari. Sotsiologiya</p>			

	<p>35. Трошкин Е.И. История социологии. – Челябинск: Издательство ЮУрГУ, 2006.</p> <p>36. Фарфиев Б.А. Нуруллаева У. Социология тарихи. Услубий қўлланма. – Тошкент: Университет, 2009.</p> <p>37. Фарфиев Б.А. Социология тарихи. Маърузалар матни. – Тошкент: Университет, 1999.</p> <p>38. Хвостов В.М. Социология: исторический очерк учений об обществе. – М.: Книжный дом «Либроком», 2011.</p> <p>39. Холбеков А.Ж. Шарқ ва Ғарб мутафаккирларининг социологик қарашлари. – Тошкент: Университет, 1996.</p> <p>40. Холбеков А.Ж., Идилов У.Ю. Социология. Изоҳли лугат. – Тошкент: Ибн-Сино нашриёти, 1998.</p> <p>41. George Ritzer, Jeff Stepnisky. Contemporary Sociological Theory And Its Classical Roots: The Basics: 4- Ed. McGraw-Hill Higher Education, 2012.</p> <p>42. H. Turner. Theoretical Sociology. SAGE Publications, Inc. 2013.</p> <p>43. Heinz Maus. A Short History of Sociology. Routledge, 1998.</p> <p>44. Joas H., Knobl W. Sozialtheorie. Frankfurt/M: Suhrkamp, 2004.</p> <p>45. Lechte John. Fifty Key Contemporary Thinkers: From Structuralism to Post-Humanism. Taylor &amp; Francis e-Library, 2007.</p> <p>46. Lewis A. Coser. Masters of Sociological Thought: Ideas in Historical and Social Context 2nd Ed. Waveland Press, Inc.; 2003.</p> <p>47. Michele Dillon. Introduction to Sociological Theory. Theorists, Concepts, and Their Applicability to the Twenty-First Century. 2-Ed. Blackwell Publishing, 2014.</p> <p>48. Scott Appelrouth. Laura Desfor Edles. Classical and Contemporary Sociological Theory: Text and Readings. 2-Ed. – Los Angeles: Pine Forge Press, 2011.</p> <p>49. Scott John (Editor). Fifty Key Sociologists: The Contemporary Theorists. Taylor &amp; Francis e-Library, 2006.</p> <p>50. Turner S. American Sociology: From Pre-Disciplinary to Post-Normal. New York: Palgrave Pivot. 2013.</p> <p style="text-align: center;"><b>Axborot manbaalari</b></p> <p>7. <a href="http://www.ziyonet.uz">http://www.ziyonet.uz</a></p> <p>8. <a href="http://www.nuu.uz">http://www.nuu.uz</a></p> <p>9. <a href="http://www.gov.uz">http://www.gov.uz</a></p> <p>10. <a href="http://www.stat.uz">http://www.stat.uz</a></p>
7.	O'quv dasturi O'zbekiston davlat jahon tillari universiteti tomonidan ishlab chiqilgan va tasdiqlangan. Dastur universitet Kengashining 2025-yil <u>28 - avgust</u> dagi yig'ilishida ko'rib chiqilgan va tasdiqqa tavsiya etilgan ( <u>1</u> - sonli bayonnoma).
8.	<b>Fan/modul uchun mas'ullar:</b> B.Sh.Karimov – O'zDJTU Siyosiy fanlar kafedrasida dotsenti, sotsiologiya fanlari doktori F.R. Davronova - O'zDJTU Siyosiy fanlar kafedrasida katta o'qituvchisi, f.d. (PhD)
9.	<b>Taqrizchilar:</b> Sh.M.Sodiqova - O'zbekiston xalqaro islom akademiyasi professori, s.f.d. (DSc) U.Sobirova – O'zZMU “Sotsiologiya” kafedrasida dotsenti, sotsiologiya fanlari doktori (DSc)

11. Батурина Т.В., Ивлев С.В. История социологии. – Кемерово, 2002.
12. Батыгин Г.С., Подвойский Д.Г. История социологии. Учебник. – М.: Высшее Образование и Наука, 2007.
13. Бачинин В.А., Сандулов Ю.А. История западной социологии: Учебник. – СПб.: Издательство «Лань», 2002.
14. Гофман А.Б. Семь лекций по истории социологии: учебное пособие. – М.: КДУ, 2008.
15. Зарубин В.Г., Семенов В.А. Социологические концепции: учебное пособие для вузов. – М.: Юрайт, 2021. <https://urait.ru/bcode/475444>
16. Зборовский Г.Е. История социологии: классический этап: учебник для вузов. 2-е изд. испр. и доп. – Сургут и [др.]: РИО СурГПУ, 2014.
17. Зборовский Г.Е. История социологии: современный этап: учебник для вузов. 2-е изд. испр. и доп. – Сургут и [др.]: РИО СурГПУ, 2015.
18. История социологии / под общ. ред. А.В.Воронцова. – М.: Издательство Юрайт, 2013.
19. История социологии (XIX – первая половина XX века): Учебник / под общ. ред. проф. В.И.Добренкова. – М.: ИНФРА-М, 2004.
20. История теоретической социологии. Социология XIX века: от появления новой науки до предвестников ее первого кризиса: уч. пособие для вузов. – М.: Академический проспект; Гаудеамус, 2010.
21. История теоретической социологии. Стабилизационное сознание и социологическая теория в век кризиса: уч. пособие для вузов. – М.: Академический проспект; Гаудеамус, 2010.
22. Йоас Х., Кнёбль В. Социальная теория. Двадцать вводных лекций. Пер.с.нем. – СПб.: Алетейя, 2011.
23. Капитонов Э.А. История и теория социологии. Учебное пособие для вузов. – М.: Издательство ПРИОР, 2000.
24. Козер Льюис А. Мастера социологической мысли. Идеи в историческом и социальном контексте. – М.: Норма, 2006.
25. Коллинз Р. Четыре социологических традиции. – М.: Изд-во «Территория будущего», 2009.
26. Кравченко А.И. Социология в 2 ТТ. Том 1. Классические теории через призму социологического воображения: учебник для бакалавров. – М.: Юрайт, 2014.
27. Кравченко А.И. Социология в 2 ТТ. Том 2. Новые и новейшие социологические теории через призму социологического воображения: учебник для бакалавров. – М.: Юрайт, 2014.
28. Кукушкина Е.И. История социологии: Учебник. – М.: НИЦ Инфра-М, 2013.
29. Лавров П.Л. Из истории социальных учений. – М.: «ЛКИ», 2011.
30. Немировский В.Г. История социологии. – М.: ВЛАДОС, 2005.
31. Полякова Н.Л. XX век в социологических теориях общества. – М., 2004.
32. Симонова О.А. История социологии XX века: избранные темы: учебное пособие. – М.: Издательство: Логос, 2008.
33. Социология: Основы общей теории: учебное пособие / Под ред. А.Ю.Мягкова. – М.: ФЛИНТА; МПСИ, 2011.
34. Социология на пороге XXI века: Основные направления исследований / Под ред. С.И.Григорьева, Ж.Кознен-Хуттера. – М., 1999.

ob'yekti va predmeti masalasining O.Kont va G. Spenser tomonidan ilgari surilishi. E. Dyurkgeym va M. Veber asarlarida sotsiologiya tahlili.

Sotsiologiya fanining tarixiy rivojlanish bosqichlari. Sotsiologiya tarixini davrlarga ajratishda yondashuvlarning xilma-xilligi. Fransiyada sotsiologiyaning rivojlanishi. Germaniyada sotsiologiyaning rivojlanishi. Angliyada sotsiologiyaning rivojlanishi. Italiyada sotsiologiyaning rivojlanishi. AQSh sotsiologiyasi – sotsiologiya fani taraqqiyotining muhim bosqichi. Sotsiologiya fanining institutsionalashuvi. O'zbekistonda sotsiologiya fani taraqqiyotining o'ziga xos xususiyatlari.

### 3-mavzu. Sotsiologiya strukturasi (4 s)

Fanda struktura tushunchasi va uning axamiyati. Sotsiologiyaning strukturasi va uning asosiy tarkibiy qismlari. Empirik sotsiologiyaning bunyod bulishi va uni sotsiologiya nazariyasi rivojiga ta'siri.

Sotsiologiya strukturasi va uning asosiy tarkibiy qismlari. Fundamental (asosiy) sotsiologiya. Nazariy va amaliy sotsiologiya: ularning umumiyligi va farqi. Emperik sotsiologiyaning paydo bo'lishi va uning sotsiologiya rivojiga tasiri. Sotsiologiyada maxsus va tarmoq yo'nalishlar. Mikrosotsiologiya va makrosotsiologiya. O. Kontning (1798-1857) hayoti va faoliyati. O.Kont ijodi va uning o'ziga xosligi. O.Kont tomonidan sotsiologiya faniga asos solinishi. O.Kontning «Pozitiv falsafa ruhi» asarining e'lon qilinishi. O.Kontning fanlar klassifikatsiyasi va unda sotsiologiyaning o'rni. Sotsial dinamika va sotsial statika.

### 4-mavzu. Sotsiologiya fanlar tizimida (4 s)

Sotsiologiya fanining predmeti, ob'yekti va ijtimoiy fanlar tizimidagi o'rni, zamonaviy fanlar tarmog'idagi roli. Sotsiologiya mustaqil ijtimoiy-siyosiy fan sifatida. Sotsiologiyaning boshqa fanlar tizimida tutgan o'rni. Sotsiologiyaning tarkibiy tuzilishi. Sotsial qonunlar va kategoriyalar.

Hozirgi davrda sotsiologiya fanini o'qitishning zarurligi. Jamiyat organizm ekanligi va evolyutsiya umumiy rivojlanish qonuni g'oyasi. Ijtimoiy va biologik organizm o'xshashligi va ular o'rtasidagi tafovutlar. Evolyutsiya qonuniyatli differentsiatsiya va integratsiya jarayoni sifatida. G.Spenserning tarixiy konsepsiyasi, harbiy va sanoatlashgan jamiyat turlarining farqlanishi.

### 5-mavzu. Asosiy sotsiologik tushunchalar (4 s)

Umumiy sotsiologik tushunchalar tavsifi. Jamiyatshunoslikning rivojlangan tabiatshunoslik sohalaridan nazariy model va namunalarni o'zlashtirishi. Asosiy tushunchalar interpretatsiyasi va operatsionalizatsiya. Sotsiologik tadqiqotlarda tanyach iboralarning nazariy tavsifi. Asosiy tushunchalar operatsionalizatsiyasi tamoyillari. Tadqiqot ilmiy farazining umumiy xarakteristikasi.

Sotsiologiya fanining zamonaviy fanlar tizimi va ijtimoiy fanlar tarkibidagi o'rni. Sotsiologik tadqiqotlar tushunchasi, uni tashkil etish, o'tkazish dasturi haqida. Aniq sotsiologik tadqiqotlarni o'tkazish usullari, turlari va sotsiologik monitoring haqida. Sotsiologik tadqiqotlar natijalarini tahlil qilish, umumlashtirish va uning ahamiyati.

### 6-mavzu. Sotsiologiyaning asosiy vazifalari (2 s)

<p>Sotsiologiya faning asosiy vazifalari va muammolari. Sotsiologiyaning tarkibiy tuzilishi. Sotsiologiyaning metodlari va sotsiologik qonunlari. Sotsiologiya fani doirasida uch bosqichi: Umumsotsiologik, Maxsus sotsiologik nazariya; Empirik sotsiologik tadqiqotlar.</p> <p>Predmet va ob'yektni tenglashtirish; "Sotsial" tushunchasi, sotsial tizimlarning vujudga kelishi va rivojlanishi; sotsial tizimlar komponentlarining tuzilishi /sotsial birliklar va guruhlar, sotsial tashkilotlar, sotsial institutlar; sotsial sistemalarning /ular komponentlarining o'zaro aloqa va o'zaro hatti harakati usullari/ strukturasi va sotsial bir butunlikning barqarorligini saqlab qolish va tartibga keltirishdagi roli; sotsial tizimlarning, ularning strukturalari va komponentlarini qayta ishlab chiqarishning mexanizmi va shart-sharoitlari.</p> <p><b>7-mavzu. Sotsiologiya metodologiyasi (4 s)</b></p> <p>Metodologiya tushunchasi. Sotsiologiya metodologiyasi: Tushuntiruvchi, ta'riflovchi va tushunuvchi metodologiyalar. Sotsiologik tadqiqotlar metodologiyasi, metodi, texnikasi va protsedurasi: Empirik sotsiologiyaning shakllanishi va rivojlanishi. Sotsiologik tadqiqotlar asosiy tushunchalarining mazmun-mohiyati: metodologiya, metodika, texnika va protsedura. Sotsiologik tadqiqotlarning tarkibiy tuzilmasi.</p> <p>Sotsiologik tadqiqotlar asosiy tushunchalarining mazmun-mohiyati: metodologiya, metodika, texnika va protseduraning o'ziga xos xususiyatlari. Amaliy sotsiologiyaning darajalari. tadqiqotning metodologik va metodik tayyorgarligi; birlamchi sotsiologik ma'lumotni to'plash; to'plangan ma'lumotlarni qayta ishlash va kompyuter dasturlariga kiritishga tayyorlash; qayta ishlangan ma'lumotni analitik tahlili.</p> <p><b>8- mavzu. Sotsiologiya paradigmatlari (2 s)</b></p> <p>Sotsiologiyaning metodologiyasi va paradigmatlari haqida. Paradigma tushunchasi. Sotsiologik paradigmatlar. Paradigma tushunchasi fanga amerikalik fan tarixchisi va faylasuf Tomas Kun tomonidan kiritilishi, u ma'lum bir tushuncha, tamoyil, yondoshuv va metodlarni o'zida mujassamlashtirgan muayyan bir konsepsiyani ifodalashi va uni fanda muammolarni hal qilish modeli yoki namunasi deb e'tirof etilishi haqida ma'lumot.</p> <p>Sotsiologiya taraqqiyoti tarixini turli xil paradigmatlar almashuvi: pozitivistik, psixologik, nepozitivistik, realistik, funksionalizm, fenomenologik va h.z.lar. Pozitivistik paradigma. Funksional paradigma. Fenomenologik paradigmaturli voqealarni tushunish, ahamiyat kasb qilish tadqiqotlarni, individlarning harakatlarini sub'yektiv ma'nolarini o'rganishjagi ahamiyati.</p> <p><b>9-mavzu. Hozirgi zamon sotsiologiyasidagi asosiy yo'nalishlar (2 s)</b></p> <p>Zamonaviy sotsiologik yo'nalishlar. Qadimgi dunyo, uyg'onish davri va o'rta asr falsafasida jamiyat to'g'risidagi ta'limotlar. XIX asrning birinchi yarmida ilmiy sotsiologiyaning vujudga kelishi. XIX asrning oxiri va XX asrda sotsiologiyaning rivojlanishi va uning asosiy yo'nalishlari.</p> <p>Sotsiologiya fan sifatida quyidagi asosiy rivojlanish bosqichlari: klassik, noklassik, marksistik va XX asr Amerika sotsiologiyasi. Sotsiologiyaning fan sifatida shakllanishiga asos solgan, uning klassik vakillari O. Kont (1798-1857), G. Spenser,</p>
---

<p>ifodalash, mavzuga oid masalalar yuzasidan qaror qabul qila olish ko'nikmasi to'liq shakllanmagan bo'ladi.</p> <p><b>2 (qoniqarsiz) baho</b> – talaba modul bo'yicha yetarli bilimga ega emas, juda qo'pol xatolarga yo'l qo'yadi, savollarga qiyinchilik bilan javob beradi, berilgan topshiriqlarni bajara olmaydi.</p>
<p><b>6.</b></p> <p><b>Asosiy adabiyotlar:</b></p> <ol style="list-style-type: none"> <li>1. Muqimjon Qirg'izboyev Sotsiologiya. Oliy o'quv yurtlari talabalari uchun o'quv qo'llanma. –Toshkent: "Navro'z" nashriyoti, 2017.</li> <li>2. Entoni Giddens Sotsiologiya. O'zbekiston Respublikasi Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligi tomonidan oliy o'quv yurtlari uchun o'quv qo'llanmasi sifatida tavsiya qilingan. "Sharq" nashriyot-matbaa aksiyadorlik kompaniyasi bosh tahririyati. – Toshkent, 2002.</li> </ol> <p><b>Qo'shimcha adabiyotlar:</b></p> <ol style="list-style-type: none"> <li>1. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi. – Toshkent: O'zbekiston, 2023. –80 b.</li> <li>2. Mirziyoyev Sh.M. Milliy taraqqiyot yo'limizni qat'iyat bilan davom ettirib, yangi bosqichga ko'taramiz. T. 1. –Toshkent: O'zbekiston, 2017. – 592 b.</li> <li>3. Mirziyoyev Sh.M. Buyuk kelajagimizni mard va olijanob xalqimiz bilan birga quramiz. – Toshkent: O'zbekiston, 2017. – 488 b.</li> <li>4. Mirziyoyev Sh.M. Qonun ustuvorligi va inson manfaatlarini ta'minlash – yurt taraqqiyoti va xalq farovonligining garovi / O'zbekiston Respublikasining Prezidenti Shavkat Mirziyoevning O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi qabul qilinganining 24 yilligiga bag'ishlangan tantanali marosimdagi ma'ruzas. – Toshkent: O'zbekiston, 2017. – 48 b.</li> <li>5. Mirziyoyev Sh.M. Tanqidiy tahlil, qat'iy tartib-intizom va shaxsiy javobgarlik – har bir rahbar faoliyatining kundalik qoidasi bo'lishi kerak / Mamlakatimizni 2016-yilda ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirishning asosiy yakunlari va 2017-yilga mo'ljallangan iqtisodiy dasturning eng muhim ustuvor yo'nalishlariga bag'ishlangan Vazirlar Mahkamasining kengaytirilgan majlisidagi ma'ruza, 2017-yil 14-yanvar. – T.: O'zbekiston, 2017. – 104 b.</li> <li>6. 2017 – 2021-yillarda O'zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo'nalishi bo'yicha Harakatlar strategiyasi / O'zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari to'plami, 2017 y., 6-son, 70-modda.</li> <li>7. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "O'zbekiston Respublikasida korrupsiyaga qarshi kurashish tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PF-5729-son Farmoni / Qonun hujjatlari ma'lumotlari milliy bazasi, 29.05.2019-y.</li> <li>8. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "O'zbekiston Respublikasi oliy ta'lim tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to'g'risida"gi PF-5847-son Farmoni / Qonun hujjatlari ma'lumotlari milliy bazasi, 09.10.2019 y.</li> <li>9. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "O'zbekiston Respublikasida korrupsiyaga qarshi kurashish tizimini yanada takomillashtirish bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi PF-6013-son Farmoni / Qonun hujjatlari ma'lumotlari milliy bazasi, 29.06.2020-y.</li> <li>10. 2022 – 2026-yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi / Qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi, 29.01.2022-y.</li> </ol>

	g'oyalarni umumlashtirish va tahlil etish, ulardan ilmiy xulosalar chiqarish va yangi sotsiologik konsepsiyalarni yarata olish <i>malakasiga ega bo'lishi kerak.</i>
4.	<p><b>VI. Ta'lim texnologiyalari va metodlari:</b></p> <ul style="list-style-type: none"> <li>• interfaol keys-stadilar;</li> <li>• amaliy mashg'ulotlar ( mantiqiy fikrlash, tezkor savol-javoblar);</li> <li>• guruh, mikroguruh bo'lib ishlash;</li> <li>• taqdimotlarni qilish;</li> <li>• individual loyihalar;</li> <li>• jamoa bo'lib ishlash va himoya qilish uchun loyihalar.</li> </ul>
5.	<p><b>VII. Kreditlarni olish uchun talablar:</b></p> <p>O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2020-yil 31-dekabrda 824-sonli qarori bilan tasdiqlangan "OTMLarda o'quv jarayoniga kredit-modul tizimini joriy etish tartibi to'g'risida Nizom"ga ko'ra fanga ajratilgan kredit beriladi.</p> <p>Talabalarining bilimini baholash O'zbekiston Respublikasi Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirining 2018-yil 9-avgustdagi 19-2018-son buyrug'i bilan tasdiqlangan "Oliy ta'lim muassasalarida talabalar bilimini nazorat qilish va baholash tizimi to'g'risidagi Nizom" talablari asosida belgilanadi.</p> <p><b>Talabalarining bilimini baholash mezonlari:</b></p> <p><b>5 (a'lo) baho</b> – talaba amaliy mashg'ulotlari topshirig'ini mustaqil yondashgan holatda to'g'ri bajaradi, amaliy muammo bo'yicha mustaqil mushohada yuritadi, masalaga oid daliliy misollarni tanlay oladi va ularni to'g'ri tahlil etish asosida ma'lum ilmiy xulosalar chiqara biladi, tayanch tushuncha va terminlarning mohiyatini to'g'ri izohlay oladi, dars jarayonida berilgan amaliy savollarga to'g'ri javob bera oladi, berilgan vazifa yuzasidan keng amaliy bilimga ega bo'ladi, fikrini izchil, erkin va ravon ifodalash ko'nikmasiga ega bo'ladi, mavzuga oid masalalar yuzasidan tegishli qarorlar qabul qila oladi.</p> <p><b>4 (yaxshi) baho</b> – talaba amaliy mashg'ulotlari topshirig'ini mustaqil yondashgan holatda to'g'ri bajaradi, ammo ishda ayrim kamchiliklarga yo'l qo'yadi, amaliy muammo bo'yicha mustaqil mushohada yurita oladi, masalaga oid daliliy misollarni tahlil etish asosida ma'lum ilmiy-nazariy xulosalar chiqara oladi, tayanch tushuncha va terminlarning mohiyatini izohlashda ba'zi ikkilanishlarga, kamchiliklarga yo'l qo'yadi, dars jarayonida berilgan amaliy savollarga to'g'ri javob beradi, berilgan vazifa yuzasidan muvaffaqiyatli amaliy bilimga ega bo'ladi, fikrini izchil, erkin va ravon ifodalash ko'nikmasiga ega bo'ladi, biroq mavzuga oid masalalar yuzasidan yetarli qaror qabul qila olmaydi.</p> <p><b>3 (qoniqarli) baho</b> – talaba amaliy mashg'ulotlari topshirig'ini mustaqil yondashgan holatda to'g'ri bajarish jarayonida jiddiy kamchiliklarga yo'l qo'yadi, amaliy muammo bo'yicha mustaqil mushohada yuritishda ma'lum ilmiy-nazariy xatolarga yo'l qo'yadi, tayanch tushuncha va terminlarning mohiyatini to'liq izohlay olmaydi, dars jarayonida berilgan amaliy savollarga qisman javob beradi, berilgan vazifa yuzasidan yetarli bilimga ega bo'lmaydi. Talaba fikrini izchil, erkin va ravon</p>

	<p>E. Dyurkgeymlar (1858-1917), G. Zimmel (1858 - 1919) va M. Veber (1864 - 1920) ijodiy faoliyatining g'oyaviy-nazariy zaminlari. F.Tyonnisning (1855-1936) nemis mumtoz sotsiologiyasi vakili sifatida.</p> <p><b>10-mavzu. Sotsiologiyaning mustaqil fan sifatida shakllanish omillari (2 s)</b> Antik va Markaziy Osiyo mutafakkirlarining sotsiologik qarashlari. Sotsiologiyaning fan sifatida vujudga kelishidagi ijtimoiy-tarixiy shart-sharoitlar va ilmiy-nazariy manbalar. Sotsiologiya fanining rivojlanish bosqichlari: klassik, noklassik va XX asr AQSH sotsiologiyasi. Sobiq sovet davrida va mustaqil O'zbekistonda sotsiologik fanining rivojlanishi.</p> <p>Sotsiologiyani fan sifatida tasavvur etishda uning vujudga kelishi va tarixiy rivojlanish bosqichlarini o'rganish muhim ahamiyati. Sotsiologiyaning fan sifatida vujudga kelishi, uning vujudga kelishidagi ijtimoiy-tarixiy shart-sharoit va ilmiy-nazariy manbalar. Sotsiologiyaning fan sifatida asosiy rivojlanish bosqichlari: klassik, noklassik, marksistik va XX asr Amerika sotsiologiyasi.</p> <p style="text-align: center;"><b>2-semestr</b></p> <p style="text-align: center;"><b>11-mavzu. Ijtimoiy qonunlar (2 s)</b></p> <p>Sotsiologik qonunlar – sotsial sistemaning turli bosqichlarida namoyon bo'luvchi turli xil sotsial birliklar, tashkilotlar va institutlarga birlashgan odamlar o'rtasidagi mavjud o'ziga xos, muhim, takrorlanib turuvchi aloqlar sifatida. Ijtimoiy hayotning turli sohalarida uchraydigan har qanday aloqalarni ham sotsiologik qonun sifatida emas, balki faqatgina sotsial sistema ichida yuzaga keladigan aloqalarni sotsial qonunlar sifatida qarashlar majmui ekanligiga oid ta'limotlar.</p> <p>Sotsiologik qonunlar sistemalilik xususiyati, ular faqatgina birgalikda sotsial sistemani bir butunlik sifatida tushuntirilishi. Sotsiologik qonunlar ikkiga: umumiy va xususiy qonunlarga tasniflanishi, Sotsial munosabatlarning ishlab chiqarish usullariga tobeligi umumsotsiologik qonun ekanligi,</p> <p style="text-align: center;"><b>12-mavzu. Sotsial status va rollar (4 s)</b></p> <p>Ijtimoiy stratifikatsiya nazariyasi va sotsiologiyasi mohiyati, ijtimoiy stratalar va ularni o'rganish tarixi, ijtimoiy stratalar xillari, tiplari, prinsiplari. Yoshlar sotsiologiyasi tushunchasi, yoshlar sotsiologiyasi tushunchasi va mohiyati to'g'risida, jamiyatda, O'zbekistonda yoshlar potentsiallari haqida. Deviant xulq-atvor sotsiologiyasi, deviant xulq-atvor mohiyati va tushunchasi, deviant xulq-atvor turlari, uning mohiyati va o'rganilishi Sotsial xatti-harakat tushunchasi. Sotsial xatti-harakatning tuzilishi va turlari. "Ideal tip" tushunchasi. "Ideal tip" tarixiy va sotsiologik bilish vositasi sifatida.</p> <p>Maks Veberning stratifikatsion jarayonlar mohiyatini ochishda ratsionalistik asosida yondashuvi va ratsionalistik omilning muhimligiga alohida ahamiyati. M.Veber tomonidan sotsiologiyaning muhim tarmoqlarini ishlab chiqilishi: iqtisodiy sotsiologiya, din sotsiologiyasi, fan sotsiologiyasi, huquq sotsiologiyasi, siyosat va madaniyat sotsiologiyasi. Veberning "Protestant axloqi va kapitalizm ruhi" asari. Kapitalistik tuzumni talqin qilishda M.Veberning Markska bildirgan asosli e'tirozlari. M.Veber g'oyalarning hozirgi zamon sotsiologiyasiga ta'siri.</p> <p style="text-align: center;"><b>13-mavzu. Sotsial harakat va sotsial o'zaro-harakatlar (4 s)</b></p>
--	--

Harakat, ijtimoiy harakat predmeti. Ijtimoiy harakat tuzilishi mentlarni: aktyor; harakatning bevosita motivi sifatida harakat qiluvchi aktyorning ehtiyoji; harakat strategiyasi (aniq maqsad va unga erishish vositalari); harakat yo'naltirilgan shaxs yoki ijtimoiy guruh; yakuniy natija (muvaffaqiyat yoki muvaffaqiyatsizlik).

M.Veber bo'yicha ijtimoiy harakat turlari "Ijtimoiy harakat" tushunchasini siyosiy sohaga tatbiq etilishi. Veber qonuniy (tan olingan) hukmronlikning uchta sofi turi: qonuniy, an'anaviy; xarizmatik. Sotsial o'zaro-harakatlarning tuzilishi, mohiyati, xususiyatlari.

#### 14-mavzu. Sotsializatsiya jarayonlari (2 s)

Shaxs sotsializatsiyasi. Ijtimoiy "men"ning shakllanishi. Ijtimoiylashuv davrlari. Ijtimoiylashuv institutlari va agentlari. Desotsializatsiya va resotsializatsiya. Shaxs sotsiologiyasida shakllanish, rivojlanish, tarbiya, sotsializatsiya kabi kategoriyalar tasnifi. Sotsializatsiya murakkab jarayon sifatida va insonning butun umri davomida sodir bo'ladigan jarayon ekanligi va 2 davrni o'z ichiga olishi: Adaptatsiya-shaxsning jamiyatda mavjud bo'lgan voqeylikka ko'nikishi yoki moslashishi; Interiorizatsiya-shaxsning o'z hoxishi, intilishi va irodasi orqali jamiyatga qo'shilishi.

Sotsializatsiya jarayonining 3 davri: Mehnatgacha bo'lgan davr; Mehnat davri; Mehnatdan keyingi davr. Sotsializatsiya jarayoniga oid yondashuvlar tasnifi. Ikkilamchi ijtimoiylashuv agentlari - maktab, administratsiya xodimlari, universitet, tashkilot, armiya, politsiya, cherkov, davlat, televideniye xodimlari, radio, nashriyot, partiya, sud xodimlari.

#### 15-mavzu. Sotsial guruhlar (2 s)

Sotsiologiyada sotsial guruh tushunchasi. Sotsial guruh turlari. Rasmiy va norasmiy guruhlar. Sotsial jamoa. Sotsial guruh nazariyasi. Sotsial guruh tushunchasi, uning asosiy belgilari. Qon-qarindoshlikka asoslangan guruxlar. Sotsiologiyada sotsial institut tushunchasi. Din sotsiomadaniy institut sifatida.

Sotsiologiyada sotsial guruxlarga ajratish mezonlarining xilma-xilligi, sotsial gurux turlari, katta va kichik, rasmiy va norasmiy guruxlar, referent gurux, Qon-qarindoshlikka asoslangan guruxlar: urug', qabila, qarindoshlar, oila, elat, millat. Ommani sotsiologik o'rganish. Sotsiologiyada sotsial institut turlari: oila, siyosat, din, iqtisod, talim va xuquq. Jamiyat xayotida sotsial institutlarning o'rni. Rasmiy va norasmiy sotsial guruxlar.

#### 16-mavzu. Sotsial institutlar (4 s)

Institut tushunchasi va uning mohiyati. Institutlarning funksiyasi va disfunktsiyasi. Institutlarning asosiy turlari. Oila va din institutlari Sotsial institutlar – G.Spenser sotsiologik ta'limotining asosiy qismi. «Sotsiologiya asoslari» asari. Sotsial institut ta'rifi. Sotsial institutlar klassifikatsiyasi: oila-nikoh, urf-odat va marosimlar, siyosiy, diniy, sanoat, kasbiy. Sotsial institutlar doirasida amal qiluvchi uch organlar tizimi: qo'llab-quvvatlovchi, distributiv, regulativ. Zamonaviy jamiyat rivojida G.Spenser qarashlarining ahamiyati.

Sotsial institutlar tizimi. Institutlarning xilma-xilligi: Norasmiy ijtimoiy institutlar. Rasmiy ijtimoiy institutlar. Iqtisodiy-ijtimoiy institutlar. Siyosiy institutlar. Ijtimoiy-madaniy va tarbiyaviy institutlar. Me'yoriy-yo'naltiruvchi institutlar.

69. Fransiyada sotsiologiyaning rivojlanishi (2s)
70. Germaniyada sotsiologiyaning rivojlanishi (2s)
71. Angliyada sotsiologiyaning rivojlanishi (2s)
72. Italiyada sotsiologiyaning rivojlanishi (2s)
73. AQSh sotsiologiyasi – sotsiologiya fani taraqqiyotining muhim bosqichi (2s)
74. Sotsiologiya fanining institutsionalashuvi (2s)
75. O'zbekistonda sotsiologiya fani taraqqiyotining o'ziga xos xususiyatlari (2s)
76. O.Kont tomonidan sotsiologiya faniga asos solinishi (2s)
77. O.Kontning fanlar klassifikatsiyasi va unda sotsiologiyaning o'rni (2s)
78. G.Spenserning tarixiy-evolyutsion konsepsiyasi (2s)
79. G.Spenserning sotsial institutlar klassifikatsiyasi (2s)
80. Sotsiologiya tarixida mexanik maktab (2s)
81. Sotsiologiya tarixida geografik maktab (2s)
82. Sotsiologiya tarixida irqiy-antropologik maktab (2s)
83. Sotsiologiya tarixida bioorganik maktab (2s)
84. Sotsiologiya tarixida sotsial-darvinizm maktabi (2s)
85. G.Lebonning guruh psixologiyasi (2s)
86. U.Mak-Daugallning instinkt psixologiyasi (2s)
87. Z.Freydning psixologik reduksionizmi (2s)
88. F. Tyonnisning nemis mumtoz sotsiologiyasi vakili sifatida (2s)
89. E.Dyurkgeym ijodida sotsial birdamlik g'oyasi (2s)
90. M.Veber ijodida sotsial xatti-harakat tushunchasi (2s)

#### 3. V. Fan o'qitilishining natijalari (shakllanadigan kompetensiyalar)

Fanni o'zlashtirish natijasida talaba:

– "Umumiy sotsiologiya" fanining obykti va predmeti; sotsiologiyaning mustaqil fan sifatida shakllanishi jarayoni; sotsiologik yo'nalish va maktablarni vujudga kelishi va rivojlanishining asosiy bosqichlari; sotsiologik g'oyalarning asosiy oqimlari evolyutsiyasining xususiyatlari va tendensiyalari; turli davrlar va jamiyatlarda paydo bo'lgan sotsiologik fikrlar va ta'limotlarning jamiyat rivojiga ta'siri haqida *tasavvur va bilimga ega bo'lishi*;

– sotsiologik tahlilning asosiy qoidalari va muammolarini ajrata olish; turli sotsiologik maktab va yo'nalishlar vakillari tomonidan ilgari surilgan sotsiologik fikr va g'oyalarning talqin etilishi evolyutsiyasini kuzatish; sotsiologik nazariya va tadqiqotlar amaliyotining o'zgarishidagi o'zaro bog'liqlikni ko'rsatib berish; sotsiologiyada empirik sotsiologik tadqiqot usullarining shakllanishi va rivojlanishi tendensiyalari, sotsiologik maktablar g'oyalari e'tiborning kuchayishi va susayishi sabablari, ijtimoiy taraqqiyotiga ta'sir ko'rsatgan ilg'or sotsiologik g'oyalardan foydalana olish *ko'nikmalariga ega bo'lishi*;

– turli sotsiologik konsepsiyalar va ularning xulosalarini metodologik tahlil qilish; turlicha sotsiologik nazariyalarning ijobiy va salbiy jihatlarini ajrata olish va ulardan amaliyotda foydalana olish; sotsiologik ta'limotlarning rivojlanishidagi o'rganilayotgan qonuniyatlar negizida jamiyatni isloh qilish bilan bog'liq munozarali masalalarni muhokama qilish va muammoli holatlarni mustaqil ravishda baholash; ijtimoiy islohotlarni nazariy jihatdan asoslash hamda amalga oshirishning xorijiy va mamlakatimizdagi tajribalari natijalarini baholash; turli davrlardagi sotsiologik

26. Zamonaviy jamiyatning o'ziga xos xususiyatlari (2s).
  27. Dehqonlar va chorvadorlar jamiyati (2s).
  28. Noindustrial sivilizatsiyalar yoki an'anaviy davlatlar (2s).
  29. Sanoatlashgan (industrial) jamiyatlar (2s).
  30. Postindustrial jamiyat (2s).
  31. Sotsial guruh tushunchasi va uning belgilari (2s).
  32. Din sotsiologiyaning muhim ob'yekti sifatida (2s).
  33. Jamiyat hayotida ijtimoiy institutlar (2s).
  34. Jamiyat hayotida ijtimoiy munosabatlar (2s).
  35. Oila shakllarining nisbatan muhim va umumiy o'zgarishlari (2s).
  36. Jamiyat hayotida ta'lim tizimi (2s).
  37. Sotsiologiyada shaxs tushunchasi (2s).
  38. O'zbekistonda demokratik jamiyat qurish jarayonida shaxs belgilari va xislatlari, sifatleri (2s).
  39. Sotsiologiyada deviant xulq-atvor (2s).
  40. Deviant xulq-atvorning ko'rinishlari (2s).
  41. Deviant xulq-atvorni o'rganishda muammoli vaziyat (2s).
  42. Jinoyatlarni sotsiologik nuqtai nazardan talqin qilish (2s).
  43. Ijtimoiy nazorat. Sanksiyalar (2s).
  44. Sotsial struktura tushunchasi (2s).
  45. Sotsial stratifikatsiyaning mohiyati (2s).
  46. Ijtimoiy o'zgaruvchanlik tushunchasi va uning turlari (2s).
  47. O'zbekistonda stratifikatsion jarayonlar evolyutsiyasi (2s).
  48. Stratifikatsiya tizimida sinflar (2s).
  49. Sotsiologiyada status tushunchasi (2s).
  50. Ijtimoiy harakatchanlik. Vertikal va gorizontal harakatchanlik (2s).
  51. Aholi migratsiyasi muammolari (2s).
  52. Sotsial munosabatlar tushunchasi (2s).
  53. Sotsial birdamlik tushunchasi (2s).
  54. Sotsiologiyada begonalashuv va tanazzul muammolari (2s).
- 2-semestr**
55. Sotsiologiyada begonalashuv va tanazzul muammolari (2s).
  56. Sotsial konflikt. Konfliktning gorizontal va vertikal yo'nalishlari (2s).
  57. Milliy mafkura O'zbekiston taraqqiyotining ma'naviy poydevori sifatida (2s).
  58. Ijtimoiy o'zgarish tushunchasi (2s).
  59. Sotsial evolyutsiya nazariyasi (2s).
  60. O'zbekistonda demokratik, adolatli fuqarolik jamiyati qurishning tadrijiy-evolyutsion yo'li (2s).
  61. Mahalliy o'zini-o'zi boshqarishning demokratik tamoyillari (2s).
  62. O'zbekistonda jahon moliyaviy inqirozining oldini olish uchun amalga oshirilgan chora-tadbirlar (2s).
  63. Sotsiologik tadqiqot dasturi (2s).
  64. Sotsiologik tadqiqotda ob'yekt va predmet (2s).
  65. Panel tadqiqotlar (2s).
  66. Trend tadqiqotlar (2s).
  67. Pilotaj tadqiqot usuli (2s).
  68. Sotsiologik tadqiqotning so'rov usuli (2s).

Me'yoriy-tasdiqlovchi institutlar. Tantanali-ramziy va vaziyatli-konvensional institutlar.

#### 17-mavzu. Sotsial munosabatlar (4 s)

Sotsial munosabatlar. Sotsial munosabatlarning turlari. Begonalashuv turlari va ularning ijtimoiy oqibatleri. Milliy mafkura - ijtimoiy munosabatlarning muhim tarkibiy qismi sifatida. Sotsial munosabatlar tushunchasi ko'pgina adabiyotlarda 2 xil darajada: keng va tor ma'noda talqin qilinishi.

O. Kont o'zining pozitivistik ta'limotida sotsial munosabatlar muammolarini xuddi biologik hodisalar metodi bilan o'rganish prinsiplari. «O'zaro ta'sir» – ramziy interaksionizmning asosiy tushunchasi. J. Mid (1863-1931) talqinidagi sotsial tajriba mazmuni. Individual ong shakllanishi jarayoni. J. Mid tomonidan ijtimoiy ongni tadqiq etish usullarining ishlab chiqilishi. Shaxs strukturasi tahlili. G. Blumerning (1900-1987) ramziy interaksionizmi.

#### 18-mavzu. Yoshlarning bo'sh vaqti va uning sotsiologik tahlili (2 s)

Bo'sh vaqt va «ishdan holi vaqt» degan tushunchalar tadqiqi va ta'rifi, Ilmiiy tadqiqotlarda bo'sh vaqt uch turga ajratilib o'rganilishi: Ijtimoiy- foydali faoliyatga sarflanadigan bo'sh vaqt – ratsionalizatorlik va ixtirochilik, havaskorlik ijodiyoti turlari, o'qish va malakani oshirish; Ma'naviy – madaniy boyliklardan foydalanishga sarflana-digan bo'sh vaqt. Jismoniy – sport va sog'lomlashtirish, sayohat- ekskursiya, sanatoriya va kurort sharoitidagi bo'sh vaqt.

Jamiyatda bo'sh vaqt ko'payishining ikki manbai: Ish vaqtining qisqarishi, Ishdan so'nggi vaqtni qayta taqsimlash hisobiga bo'sh vaqtning ko'payishi. Yoshlarga oid davlat siyosatini amalga oshirish strategiyasi: mavjud vaziyat va rivojlantirish istiqbollari

#### 19-mavzu. Din sotsiomadaniy institut sifatida (2 s)

Ijtimoiy hayotning muhim jabhasi bo'lgan din va diniy e'tiqod masalasi Sotsiologiya fanining muhim obyektlaridan biri sifatida. Din o'ziga xos belgilarga egaligi: Muayyan e'tiqod va ta'limotning mavjudligi. Har bir din dunyoni o'z nazaricha izohlaydi va ishonuvchilarda muayyan shakli ekanligi; Marosim va rasm-rusumlar. Har bir din o'ziga xos marosim va rasm rusumlarga egaligi; Diniy marosim va rasm-rusumlarning muayyan qismi faqat belgilangan joylarda jamoa bo'lib bajarilishi.

Diniy ong va uning shakllanishi haqida tushuncha. Dunyo dinlarining tasnifi. Islom dini ma'naviy qadriyat sifatida. Dinning siyosiylashuvi jarayonlari tahlili.

#### 20-mavzu. Oila ijtimoiy institut sifatida (2 s)

Oila va tarbiya masalasini sotsiologik o'rganishning ahamiyati. Oila sotsiologiyasining vazifalari. Ularga jamiyat taraqqiyoti davomida oilaning mohiyati va faoliyati o'zgarib borishini aniqlash, nikoh va oila evalyutsiyasini o'rganish, oilani tashkil topishi va taraqqiyoti avlodlarning o'zaro ta'sirini aniqlash, oila tarbiyasi, oilaning reaktiv faoliyatining va oila huquqining ijtimoiy mohiyatini ochib berish, mehnat taqsimotida oila o'rnini o'rganishga kirishi.

Oila taraqqiyotini uch yo'nalishi: Oilaning demografik taraqqiyoti; Oilaning ijtimoiy taraqqiyoti; Oilaning iqtisodiy taraqqiyoti. Oila turlari va tarkibida sodir bo'lgan o'zgarishlar va ularga ta'sir etuvchi omillarni jamiyat taraqqiyotining har bir